O'zbekiston olimlari fazoni jiddiy tadqiq qila boshlaydi!

Toshkentda O‘zbekiston va Rossiya hukumatlarining fazoni hamkorlikda o‘rganishni kuchaytirish bo‘yicha topshiriqlariga asosan “O‘zbekistondagi Suffa yassi tog‘ida joylashgan radioobservatoriyaning bugungi holati va istiqbollari” nomli xalqaro anjuman ish boshladi. Ikkala mamlakat Fanlar akademiyalari akademiklari ishtirokida o‘tkazilayotgan anjumanda radioastranomiyaning rivojlanish masalalari ko‘rib chiqiladi, deya xabar berdi O‘zbekiston fanlar akademiyasi matbuot xizmati.

Hamkorlikda barpo etilayotgan “Suffa” xalqaro radioastronomik observatoriya (XRAO) Toshkentdan 200 km janubi-g‘arbda Suffa yassi tog‘ida joylashgan. Observatoriyada antennasining diametri 70 metr bo‘lgan radioteleskop o‘rnatish ko‘zda tutilgan bo‘lib, u radioto‘lqinlarning millimetrli diapazonida ishlaydi. Olis fazodan qora tuynuklar, pulsar yulduzlar va boshqa kosmik obe’ktlar taratayotgan radioto‘lqinlarni tutish, obektlarning tarkibi, joylashuvi, yoshi va boshqalar to‘g‘risida ilmiy hulosalar to‘plashda ko‘maklashadi. Oddiy teleskoplar yordamida ilg‘ash imkoni bo‘lmagan galaktikalar, sayyoralar va yulduzlarni izlab topadi.

Suffa yassitog‘ida radioobservatoriyani qurish ishlari 1982 yilda boshlangan. 1990-yillarda qurilish moliyaviy sababdan to‘xtatib qo‘yildi. Shunga qaramasdan, 1995 yilda “Suffa” Xalqaro radioastronomik observatoriyasi qurilishini tugallash haqida O‘zbekiston va Rossiya hukumatlararo kelishuvi imzolandi. 2007 yilda O‘zbekiston tomoni yordamchi infrastrukturani yaratish bo‘yicha ishlarni boshlab yubordi, lekin RT-70 radioteleskopi konservatsiya qilingani bois jahon ilmu fani uchun juda muxim bo‘lgan bu obektda jiddiy tadqiqotlar olib borilmadi.

Observatoriyani to‘laqonli ishga tushirish, undan samarali foydalanish loyihasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamda Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda. Rossiya fanlar akademiyasi bilan kelishuvga ko‘ra 2019 yildan observatoriya to‘laqonli ish boshlaydi.

Joriy anjumanda “Suffa” XRAOning faoliyatini tiklash bo‘yicha mavjud muammolarini tahlil qilish, murakkab texnologiyali xalqaro ilmiy obektni qurish bilan bog‘liq ilmiy, texnikaviy va tashkiliy muammolarga amaliy yechim topish, ushbu loyihada uchinchi davlatlarning ishtiroki imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, astrofizika va radioastronomiya sohasida xalqaro fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

http://www.mahalladosh.uz/post?id=2392